

KORXONALARDA MHXSNI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Sultonova Moxichexra*Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti Magistranti*

Annotatsiya. Korxonalar uchun MHXSga o‘tishning dolzarbligi, yillik hisobotlarni tuzishda yuzaga keladigan muammolar, korxonalarda an’anaviy tarzda amalga oshirib kelingan hisob tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqilishi zarurligi ta’kidlangan.

Tayanch so‘zlar: MHXS, aktivlarning qadrsizlanishi, dunyo tajribasi, malakali hisobchilar, moliyaviy zanjir, MHXSning o‘ziga xos jihatlari.

Kirish. Bugungi kun dunyo amaliyotida ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar KO‘K uchun MHXSni to‘liq MHXSlari bilan birgalikda qabul qilmoqdalar. Shuning bilan birga to‘liq MHXS qabul qilgan rivojlangan mamlakatlar esa, tan olish va baholashning murakkabligini hisobga olgan holda kichik korxonalar uchun MHXSni qabul qilmagan(Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlar, Yangi Zelandiya, Avstraliya va boshq)[5]. Masalan, Yangi Zelandiya kichik va o‘rta biznes uchun xarajatlarni qisqartirish zarurligini ta’kidladi. Avstraliya esa kichik korxonalar uchun MHXS qabul qilmasdan kuzatib borishini bildirib o‘tdi, xolos. Yevropa Ittifoqi Komissiyasining ta’kidlashicha bugungi kungacha KO‘K uchun MHXS 22 tilda chop etilganligiga hamda 84 ta davlat foydalanayotganligiga qaramasdan boshqaruv xarajatlarini kamaytirishga erishilmadi. KO‘K uchun MHXSlarini qabul qilgan aksariyat mamlakatlar turizm va baliqchilikka ixtisoslashgan, unchalik katta iqtisodiyotga ega bo‘lmagan kichik mamlakatlardir. Ularning aksariyati buxgalteriya hisobining o‘z milliy standartlarini ishlab chiqish salohiyatiga ega emaslar. Shu sababli ham ular KO‘K uchun ham, yirik korxonalar uchun ham MHXSlarini bir vaqtda qabul qildilar. Biroq, KO‘K uchun MHXSni qabul qilgan davlatlar orasida rivojlangan mamlakatlar-Shveysariya, Buyuk Britaniya, Shimoliy Irlandiya, shuningdek, rivojlanayotgan Braziliya, Argentina kabi mamlakatlar ham mavjud. KO‘K uchun MHXSni birinchi bo‘lib 2009-yilda Janubiy Afrika Respublikasi qabul qildi. Shundan so‘ng Afrika Qit’asidagi bir qancha davlatlar KO‘K uchun MHXSni birin ketin qabul qila boshladilar. Bularning orasida yalpi ichki mahsuloti bo‘yicha dunyoda 22-o‘rinda turadigan Nigeriya, aholi jon boshiga taqsimlaganda yalpi ichki mahsuloti bo‘yicha Afrika qit’asida ikkinchi o‘rinda turadigan Botsvana davlatlari ham bor edi. Nigeriyaning KO‘K uchun MHXSni qabul qilishining asosiy sabablaridan biri chegaradosh bo‘lgan mamlakatlarning ushbu standartni qabul qilishi edi. Aksariyat mutaxassislar kichik korxonalar uchun moliyaviy hisobotlarni qayta tayyorlash

xarajatlari kam bo'lishini ta'kidlab, KO'K uchun MHXS ni qabul qilishga undamoqda. KO'K uchun MHXSni qabul qilgan davlatlarda malakali buxgalterlarning yo'qligi yoki yetarli emasligi vaziyatni og'irlashtirmoqda. Ushbu muammolarni xal qilish uchun ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi, sifat nazorati o'rnatildi. Bunday mamlakatlarda kichik korxonalar buxgalterlarini qayta tayyorlash xarajatlari davlat tomonidan qisman subsidiyalanadi. KO'K uchun malakali hisobchilarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yilmoqda. Jahon ekspertlarining fikriga ko'ra kichik korxonalar ham MHXSni qabul qilishlarining maqsadga muvofiqligini va bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishlari lozimligini ta'kidlaydilar[6]. Uganda davlati xukumati KO'Klar uchun banklardan kredit olish uchun MHXSni qabul qilishlarini majburiy qilib qo'ydi. Bundan tashqari kichik tadbirkorlik subyektlari uchun buxgalteriya standartlarini ishlab chiqish maqsadini qo'ydi [7]. Lotin Amerikasi hamda Karib xavzasi davlatlarida KO'K uchun MHXSni qabul qilishga qiziqishlari ancha yuqori. Ushbu mamlakatlar KO'Klarning moliyaviy hisobotlariga ishonch yo'qligi sababli standartni qabul qilgan aksariyat mamlakatlardir. Lotin Amerikasidagi ko'pchilik mamlakatlar MHXSlarini xech qanday o'zgartirishlarsiz qabul qildilar. Braziliya singari yirik mamlakatlar kichik korxonalarning yillik aylanmalari o'sib borishi bilan birga standartlarning ayrim qoidalariga o'zgartirishlar kiritdilar. E'tiborlisi Braziliya mamlakatida MHXSlari majburiydir. Biroq, KO'Klar to'liq MHXSlaridan foydalanmasalar KO'K uchun MHXSlaridan foydalanishlari kerak. Faqatgina yalpi daromadi 1.1 million AQSH dollaridan kam bo'lgan mikrofirmalar Braziliya milliy standartlaridan foydalanishlari mumkin. Jahonning boshqa mamlakatlari masalan, Argentina KO'K uchun MHXSni to'liq qabul qilgan. Osiyo – Tinch okeani mintaqasi davlatlari ham KO'K uchun MHXSlarini qabul qilmoqda. Masalan Singapur mamlakuati "Kichik va o'rta biznes" ni "Kichik biznes subyekti" deb nomladi va bunday atama aylanmasi 7-10 mln AQSH dollaridan oshmaydigan korxonalarni o'z ichiga oladi.

Umumiy xulosalar:

1. KO'K uchun MHXSni qabul qilgan deyarli barcha mamlakatlar standart talablarini qo'llashning qiyinligini ta'kidlab o'tadilar. Bu esa buxgalteriya hisobi usulini tanlashning o'zgaruvchanligini taqiqlash, ma'muriy yukning ortishi bilan izohlanadi.
2. Buxgalterlik kasbining taraqqiy etganligi bilan bu kasb egalarida zaruriy bilimning yetishmasligi muammosi. Ko'plab kichik korxonalar buxgalterlar ilmidan foydalanmasdan o'zlari hisob-kitoblarni yuritadilar.
3. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida moliyaviy hisobot va soliq qonunchiligi o'rtaida bog'liqlikning yo'qligi alohida hisobot shakllarini shakllantirishga undaydi. Bu esa o'z navbatida ma'muriy xarajatlarning ortishiga olib keladi.

4. Mintaqalarning madaniy, tartibga solish va iqtisodiy sharoitlari turlicha bo'lganligi uchun rivojlangan mamlakatlar o'z xoxish-istaklarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar

5. KO'K uchun MHXSni qayerda qo'llashni aniqlamasdan turib qonuniy asoslarini ishlab chiqish, bu moliyaviy hisobotlarning foydasiz shaklga aylantirishi mumkin. 6. Rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatida KO'K uchun MHXSni amaliy sinovdan o'tkazilmagan. Bu ham korxonalar oldiga turli to'siq va qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli Qarori.
2. Moliyaviy hisobning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. A.N. To'rayev - T.: TMI, 2021.
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Tarjima. A.Rizaqulov, B.Hasanov, A.Usanov, Z. Mamatov. T.: - 2004.
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. Jalolova D - T.: Moliya instituti, 2004.
5. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari.-T., "O'zbekiston iqtisodchilar uyushmasi", 1999.-1-2 qismlar.
6. Buxgalterskiy uchët po mejdunarodnym standartam finansovoy otchetnosti. Ucheb. pos. I, II tom/ - T.: "ILM FAN RIVOJ", 2015.-278 s.
7. International Accounting Standards. The ICA in England and Wales. London, 1989.
8. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Mavjud holat va istiqbol nimalarda namoyon bo'ladi? Ilmiy maqola. A. Karimov, I. Qo'ziyev, M. Raximov, 2020.05.12